



Boymurodova Zarnigor Xushvaqto'vna
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: zarnigorzarnigor241@mail.com

ZAMONAVIY O'ZBEK OILASIDA AYOLLARNING IJTIMOY-IQTISODIY ROLI: TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy roli tahlil qilinib, tadqiqot natijalari asosida ularning oiladagi mavqeyi va jamiyatdagi ishtiroki kengayib borayotgani aniqlangan.

Аннотация. В данной статье анализируется меняющаяся социально-экономическая роль женщин в современных узбекских семьях. На основе результатов исследования установлено, что статус женщин в семье и участие в обществе расширяются.

Annotation. This article analyzes the changing socio-economic role of women in modern Uzbek families. Based on research results, it is determined that women's status in the family and participation in society are expanding.

Tayanch so'zlar: oila, ayollar huquqlari, gender tenglik, ijtimoiy-iqtisodiy faollik, zamonaviy tendensiyalar.

Ключевые слова: семья, права женщин, гендерное равенство, социально-экономическая активность, современные тенденции.

Keywords: family, women's rights, gender equality, socio-economic activity, modern trends.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, jamiyatning barcha jabhalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar orasida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari alohida o‘rin egalladi. Chunki ayollarning jamiyat hayotidagi o‘rni va faolligini oshirmasdan turib, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlab bo‘lmaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy va ijtimoiy maqomini mustahkamlash, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha izchil davlat siyosati olib borildi. Bu siyosat doirasida qator qonunlar qabul qilindi, institutsional mexanizmlar yaratildi, amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.¹ Ushbu Qonun bilan gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bu boradagi islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezident tomonidan 2022-yil 7-martda imzolangan “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bu boradagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.²

Mazkur Farmon bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur tasdiqlandi. Dasturda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshdi³. Jumladan, ayol tadbirkorlar soni ko‘paydi, xotin-qizlarning oliy ta‘lim olish imkoniyatlari kengaydi, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki ortdi.

2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

***Ushbu maqolaning
asosiy maqsadi
zamonaviy
o'zbek oilasida
ayollarning
ijtimoiy-iqtisodiy
rolini tahlil
qilish, mavjud
tendensiyalarni
aniqlash va kelajak
istiqbollarini
belgilashdan
iborat.***

Biroq bu borada hali hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, ayrim sohalarida gender tengsizlik holatlari uchrab turibdi, ayollar bandligini ta'minlash va ish bilan oilaviy majburiyatlarni muvozanatlashtirish masalalari dolzarblashmoqda. Bu esa mavzuning muhimligini ko'rsatadi va uni yanada chuqurroq o'rganish zarurligini belgilaydi.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy roli, bu boradagi tendensiyalar va istiqbollar tahlil qilinadi. Maqolada ayollarning ta'lim olishi, mehnat faoliyati, tadbirkorlik va davlat boshqaruvidagi ishtiroki masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ayollarning oiladagi o'rni va mavqeyi, oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlar ham tahlil qilinadi.

Maqolada so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi. Bu esa mavzuni har tomonlama yoritish va asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Maqsad va uni asoslash. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy rolini tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va kelajak istiqbollarini belgilashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish.
2. Ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari, mehnat faoliyati va tadbirkorlikdagi ishtiroki bo'yicha mavjud holatni o'rganish.
3. Ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki darajasini aniqlash.
4. Zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning o'rni va mavqeyidagi o'zgarishlarni tahlil qilish.
5. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yanada oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu mavzu O'zbekistonda olib borilayotgan gender siyosati doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila institutini mustahkamlash va jamiyatda gender tenglikni ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur mavzu sotsiologiya, iqtisodiyot va gender tadqiqotlari kabi fanlararo yondashuvni talab qiladi.

Mavzuning **dolzarbligi** quyidagi omillar bilan belgilanadi:

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, oilaviy munosabatlarda

ham tub o'zgarishlar yuz berdi⁴. Bu o'zgarishlar ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyiga ham ta'sir ko'rsatdi⁵. Shu bois, zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning o'rni va rolini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning samaradorligini baholash va keyingi bosqichdagi vazifalarni belgilash uchun mavjud holatni chuqur tahlil qilish zarur.

O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan⁶. Bu maqsadlar orasida gender tenglikni ta'minlash ham mavjud. Shu bois ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda oilaning roli va ahamiyati o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar ayollarning oiladagi o'rni va mavqeyiga ham ta'sir ko'rsatmoqda⁷. Shu sababli bu jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Globalashuv jarayonlari ta'sirida an'anaviy oilaviy qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar o'rtasida ma'lum ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Bu ziddiyatlarni hal etish va milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy talablarga javob beradigan oila modelini shakllantirish uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur.

Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shish mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali mamlakat yalpi ichki mahsulotini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu sababdan ham bu masalani o'rganish nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston aholisining yarmidan ko'pini ayollar tashkil etadi. Ularning salohiyatidan to'liq foydalanmasdan turib, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalasi davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Oilada sog'lom muhit yaratish, farzandlarni to'g'ri tarbiyalash ko'p jihatdan ayollarga bog'liq.

Zamonaviy jamiyatda oilaning roli va ahamiyati o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar ayollarning oiladagi o'rni va mavqeyiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli bu jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

⁴ Abilov O'.M. Mustaqillik va optimizm. – Toshkent: Fan, 1997.

⁵ Aliyev B. Bozor munosabatlarining qaror topish sharoitida mehnat jamoasining ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi. – Toshkent: Fan, 1992.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori.

⁷ Akbarova A.L., Sobirov X.N. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotida ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari. Xalqaro Nordik Universiteti, 2022.

Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, turli soha mutaxassislari hamkorligida o'rganishni talab etadi. Bu esa mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bois, ayollarning bilim va malakasini oshirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirish orqali butun jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini yaxshilash mumkin.

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integrasiyalashib bormoqda. Bu jarayon xalqaro standartlarga muvofiq gender tenglikni ta'minlashni taqozo etadi. Shu bois, bu boradagi xalqaro tajribani o'rganish va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, turli soha mutaxassislari hamkorligida o'rganishni talab etadi. Bu esa mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Yuqorida keltirilgan omillar ushbu mavzuning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy rolini har tomonlama o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini izlab topish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy roli so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda kuzatish mumkin:

1. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmonida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 10 yilda oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan qizlar soni ikki barobarga oshgan⁸. Bu esa ayollarning bilim va malakalarini oshirishga, kelajakda yuqori maoshli ish o'rinlarini egallashga imkon yaratmoqda.

Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pi – 653 ming nafardan ziyodini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu – jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani.

Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, ayollar o'rtasida oliy ta'lim olishga intilish kuchaymoqda. Bu esa kelajakda malakali mutaxassis ayollar sonining ko'payishiga olib keladi. Natijada ayollarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshadi, yuqori lavozimlarni egallash imkoniyatlari kengayadi.

Biroq ta'lim sohasida hali hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, qishloq joylarda yashovchi qizlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlari shahar joylariga nisbatan pastroq. Shuningdek, ayrim

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.

an'anaviy qarashlar tufayli ba'zi oilalarda qizlarning oliy ta'lim olishiga to'sqinlik qilish holatlari hali ham uchrab turadi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qishloq joylarda yashovchi iqtidorli qizlar uchun oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha kvotalar ajratish;
- qizlarning oliy ta'lim olishiga to'sqinlik qilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqish;
- qizlarning aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlarida ta'lim olishiga rag'batlantirish;
- oliy ta'lim muassasalarida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

2. Mehnat bozoridagi faollik.

Ayollarning iqtisodiy faolligi oshib bormoqda. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, ish bilan band aholining 45,7 foizini ayollar tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 5,2 foizga oshgan⁹.

Biroq ayollar bandligini ta'minlash hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Xususan, qishloq joylarda ayollar bandligi shahar joylariga nisbatan pastroq. Shuningdek, ayollar ko'proq kam haq to'lanadigan sohalarda band bo'lmoqda.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- ayollar bandligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish;
- ayollarni yuqori haq to'lanadigan sohalarga jalb etish;
- ish va oila majburiyatlarini muvozanatlashtirish imkonini beradigan moslashuvchan ish grafiklari va masofaviy ish shakllarini joriy etish;
- ayollar mehnatini muhofaza qilishni kuchaytirish.

3. Tadbirkorlik faoliyati.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ayollarning ishtiroki kengaymoqda. 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan individual tadbirkorlarning 39,4 foizini ayollar tashkil etgan.

So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshgan. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trillion so'mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratilgan¹⁰.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2021.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.

Biroq ayollar bandligini ta'minlash hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Xususan, qishloq joylarda ayollar bandligi shahar joylariga nisbatan pastroq. Shuningdek, ayollar ko'proq kam haq to'lanadigan sohalarda band bo'lmoqda.

An'anaviy qarashlardan farqli o'laroq, zamonaviy oilalarda qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning ishtiroki kuchaymoqda. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, respondentlarning 68 foizi oilaviy masalalarda er-xotin birgalikda qaror qabul qilishini ta'kidlagan.

Bu raqamlar ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Biroq ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ayollarga biznesni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish;
- ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- ayol tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish;
- ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va joriy etish.

4. Oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlar.

An'anaviy qarashlardan farqli o'laroq, zamonaviy oilalarda qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning ishtiroki kuchaymoqda. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, respondentlarning 68 foizi oilaviy masalalarda er-xotin birgalikda qaror qabul qilishini ta'kidlagan¹¹.

Bu o'zgarishlar ijobiy hodisa bo'lsa-da, hali ham ayrim oilalarda ayollarning huquqlari cheklanishi, oilaviy zo'ravonlik holatlari uchrab turishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- oilaviy munosabatlarda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;
- oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish;
- nizoli oilalar bilan ishlashning samarali tizimini yaratish;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

5. Ijtimoiy faollik.

Ayollarning jamoat ishlari va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ortib bormoqda. 2020-yil saylovlari natijalariga ko'ra, parlament a'zolarining 32 foizini ayollar tashkil etgan¹².

Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgan. Bu ijobiy o'zgarish bo'lsa-da, ayrim sohalarda, masalan, yuqori boshqaruv lavozimlarida gender tengsizlik holatlari uchrab turibdi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

¹¹ "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi ma'lumotlari. 2022.

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlari, 2020.

- ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish;
- davlat va jamiyat boshqaruvi organlarida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha kvotalar joriy etish;
- ayollarning siyosiy partiyalar faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish;
- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ayollar ishtirokini rag'batlantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, hali hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud.

Bu muammolarni kompleks hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. *Qonunchilik bazasini takomillashtirish.* Gender tenglikni ta'minlash, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

2. *Institutsional mexanizmlarni kuchaytirish.* Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha faoliyat olib borayotgan davlat organlari va nodavlat tashkilotlarning salohiyatini oshirish, ular o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

3. *Ma'rifiy ishlarni kuchaytirish.* Jamiyatda gender tenglik g'oyalarini keng targ'ib qilish, bu borada mavjud stereotiplarni bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish lozim.

4. *Statistik ma'lumotlar bazasini takomillashtirish.* Gender bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish tizimini yaratish zarur.

5. *Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.* Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va joriy etish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek oilasida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy roli sezilarli darajada o'zgarmoqda. Bu o'zgarishlar jamiyatning barqaror rivojlanishiga, oilalarning farovonligini oshirishga va gender tenglikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu tendensiyalarning yanada rivojlanishi kutilmoqda. Biroq, mavjud muammolarni hal etish uchun davlat va jamiyat tomonidan izchil sa'y-harakatlar talab etiladi.

*Xulosa qilib
aytganda,
zamonaviy
o'zbek oilasida
ayollarning
ijtimoiy-iqtisodiy
roli sezilarli
darajada
o'zgarmoqda.
Bu o'zgarishlar
jamiyatning
barqaror
rivojlanishiga,
oilalarning
farovonligini
oshirishga va
gender tenglikni
ta'minlashga
xizmat qilmoqda.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-senbardagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2021.
4. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi ma'lumotlari, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlari, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori, 2021.
8. Akbarova A.L., Sobirov X.N. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotida ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari. Xalqaro Nordik Universiteti, 2022.
9. Abilov O'.M. Mustaqillik va optimizm. – Toshkent: Fan, 1997.
10. Aliyev B. Bozor munosabatlarning qaror topish sharoitida mehnat jamoasining ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi. – Toshkent: Fan, 1992.